


Yondosh mavzu:
bayramlar.

Aylana, radius,
sirkul.




1. Ushbu shakllar orasidan:

- a) ochiq siniq chiziqlarni;
- b) ko'pburchaklarni;
- d) to'g'ri to'rtburchaklarni;
- e) aylanalarni toping.



Aylana sirkul yordamida yasaladi:

- 1) Aylananing markazi bo'lgan nuqta belgilanadi.
- 2) Sirkul ignali uchi bilan qalamli uchi orasidagi masofa radiusga teng bo'ladigan qilib ochiladi.
- 3) Sirkulning holatini o'zgartirmagan holda, ignali uchini aylananing markaziga qo'yib, uning atrofida qalamli uchi bilan aylana chiziladi.



- 2. Aylana markazini belgilang. Shu markazdan ikkita aylana chizing: birining radiusi 5 cm, ikkinchisining radiusi esa undan 20 mm kichik bo'lsin. Birinchi aylananing ikkinchi aylanaga kirmaydigan qismini bo'yang.

90. Aylana yasash



3. Daftaringizda 4 cm uzunlikda kesma yasang. Shunday radiusli aylana yasang. Bu aylanada 3 ta radius o'tkazing. Bu radiuslar aylanani nechta bo'lakka bo'ladi?



4. Tadqiqot ishi. Ko'zingiz qanchalik o'tkir, qo'lingiz qanchalik aniq ishlashini tekshiramiz.


a) Daftaringizda O nuqtani – aylananing markazini belgilang.

b) O nuqtadan o'ng tomonga 3 cm uzunlikda OA kesma ajrating.

d) Sirkul ishlatmasdan, qo'lingiz bilan O nuqta atrofida radiusi 3 cm bo'lgan aylana chizib ko'ring. Qalamni qog'ozdan uzib, aylanani bo'laklab chizishingiz ham mumkin.

e) Sirkul yordamida 3 cm radiusli aylana chizing.

f) O'zingiz qo'lda chizgan aylana bilan sirkulda chizilgan aylanani solishtiring. Chiziqlar qanchalik ustma-ust tushdi yoki tushmadi?



5. Qulay usulda hisoblang.

$$583 + 186 + 417 + 114$$

$$567\,890 - (67\,890 + 29\,000)$$

$$(230\,000 + 213\,759) - 13\,759$$

$$56 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 25$$

$$459 + 819 + 541$$

$$320 - (187 + 120)$$

$$(726 + 385) - 426$$

$$8 \cdot 426 \cdot 125$$



6. Azizaning tug'ilgan kuni munosabati bilan onasi uyni sharlar bilan bezatdi. U mehmonxonaga 18 ta shar ildi. Bu yo'lakka ilingan sharlardan 7 ta kam, Azizaning xonasiga ilingan sharlardan esa 5 ta ko'p. Uyga jami nechta shar ilingan?



7. Katakchalarga shunday sonlar yozingki, tengliklar to'g'riligicha qolsin.

$$481 + \square = 491$$

$$256 + \square = 256 + 118$$

$$518 \cdot \square = 0$$

$$972 : \square = 1$$

$$800 - \square = 800$$

$$900 - \square = 899$$

$$\square : 602 = 0$$

$$1 \cdot \square = 445$$




8. Matn bo'yicha tenglamalar tuzing. Ularni tekshirishlar bilan yeching.

a) Bayram sovg'asining ichida x ta konfet bor. Jami 80 ta sovg'a tayyorlangan. Agar hamma sovg'alarga 960 ta konfet ketgan bo'lsa, x ni toping.

b) Vatan himoyachilari kuniga qiz bolalar 270 ta, o'g'il bolalar esa y ta tabriknoma tayyorlashdi. Jami 420 ta tabriknoma tayyorlangan bo'lsa, y ni toping.



9. Doirachalar ichiga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 sonlarini shunday joylashtiringki, har bir chiziq bo'ylab sonlar yig'indisi bir xil bo'lsin. Doiraning o'zini ham chiziq deb hisoblang. Har bir sondan faqat bir marta foydalanish mumkin.



10. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$x \cdot 3 = 201 \cdot 20$$

$$y : 30 = 521 + 427$$



11. Bayram bezagi yasasadigan yumaloq taglikning diametrini o'lchang. Daftaringizda xuddi shunday diametrli aylana yasab, unga 6 ta radius o'tkazing. Hosil bo'lgan bo'laklarni har xil ranglarga bo'yang. Nechta bo'lak hosil bo'ldi?

